



ISSN 2181-1709 (P)  
ISSN 2181-1717 (E)

2024/№ 1

**ТА'ЛИМ ВА  
INNOVATION  
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И  
ИННОВАЦИОННЫЕ  
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND  
INNOVATIVE  
RESEARCH**

Xayrov R. Z. Tasviriy san'atni o'qitishda kasbiy-metodik tayyorgarlikning mohiyati va mazmuni tahlili	269
Xayrullayev A. I. Virtual laboratoriyalardan foydalanib talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	278
Xolmatova S. V. Ta'limning raqamli transformatsiyasi kontekstida akademik mustaqillikning evolyutsiyasi	283
Zaripova G. K. Umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish – ular tarbiyasi samaradorligini oshirishning muhim faktoridir	288
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Абдумаджидова Д. Психологическое здоровье и психологическая подготовка спортсменов в современном спорте	297
Elmurodov U. Yu. Rahbar shaxsining psixologik kompetentligini rivojlantirish masalalari	302
Казимова Л. Развитие эмоции у дошкольников – как предмет психологического исследования	306
Konurova L. R. Music therapy in working with preschool children	311
Mavlyanova S. S. Shaxsda mustaqillik xususiyatini shakllanishida oilaviy munosabatlarning ta'siri	316
Murtazayeva Sh. M. Oila mustahkamligini ta'minlashda ota-ona va farzand munosabatlarining psixologik xususiyatlari	320
Odilova Yo. I. Ota-onalarning bolaga munosabati, ijtimoiy fobiya shakllanishining omili sifatida	324
Otanazarova M. U. Shaxsning shakllanishida oila, pedogog va psixolog hamkorliginig psixologik xususiyatlari	330
Rashidova G. G'. Muloqot psixologiyasida muloqotning jins bilan bog'liq xususiyatlari	334
Ravshanov O. Ertak terapiyasi maktabgacha yoshidagi bolalarning psixologik xavfsizligini shakllantirish usuli sifatida	339
Raxmonova D. F. Kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari	344
Rustamov Sh. Sh. Talabalarda psixologik kompetentlikni shakllantirishning ijtimoiy - psixologik mexanizmlari	348
Рзаев Р.М., Кошанов Д.Е., Қоңырбаев Д.М., Палуаниязова Н. Қорақалпоғистоннинг турли ҳудудларида истиқомат қилувчи ҳарбий чақирик ёшидаги ўспиринларнинг ташқи нафас олиш ҳолатига тавсиф	355
Ro'ziqulov F. R. Noto'liq oilalarda tarbiyalangan o'smirlarning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish	359
Tirkasheva M. A. Nikoh barqarorligiga ta'sir etuvchi omillar	364
Yuldasheva S. U. Koxlear implantatsiyasi: muammo, echim, istiqbollari	371



## UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI O'QUVCHILARINING YOSH VA INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLISH – ULAR TARBIYASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING MUHIM FAKTORIDIR

Zaripova Gulbahor Komilovna,

Buxoro davlat universiteti axborot texnologiyalari fakulteti "Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.01.1.060>

*Annotatsiya.:* Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish – ular tarbiyasi samaradorligini oshirishning muhim faktori haqida ilmiy-nazariy va amaliy muallifning izlanishlariga bag'ishlangan. Bunda o'quvchilarni mustaqil inson sifatida o'z-o'zini tarbiyalashga qaratilgan pedagogik-psixologik mahorat tajribalari haqida bo'lib, shu bilan birga o'quvchi ma'lum yoshga etgan inson va shaxs sifatida uch jihati bilan ajralib turishi batafsil bayon etilgan hamda unda o'quvchilarni birinchidan ijtimoiy jihatdan, ikkinchidan pedagogik-psixologik jihatdan, uchinchidan biologik jihatdan ochib berilgan.

*Kalit so'zlar:* inson, inson aql zakovati, odamga ta'sir ko'rsatmoq, hamkasblar, tabiat-jamiyatga munosabat, yosh davrlari, psixik faoliyat, aqliy, axloqiy, estetik, g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy, tanlagan mutaxassisligini chuqur egallash, sabab va oqibat munosabatlari, moddiy va ma'naviy ishlab chiqarish, ijtimoiy hayot, O'quv yurtlaridagi, ta'lim-tarbiya jarayoni, ijtimoiy etuklik, axborot vositalari.

## УЧЁТ ВОЗРАСТА И ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ УЧАЩИХСЯ ОБЩЕЙ СРЕДНЕЙ ШКОЛЫ ЯВЛЯЕТСЯ ВАЖНЫМ ФАКТОРОМ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИХ ОБРАЗОВАНИЯ

Зарипова Гульбахор Комиловна,

доцент кафедры информационных систем и цифровых технологий факультета информационных технологий Бухарского государственного университета, кандидат педагогических наук,

*Аннотация:* Данная статья посвящена авторским научно-теоретическим и практическим исследованиям об учёте возрастных и индивидуальных особенностей учащихся общеобразовательных школ – важном факторе повышения эффективности их образования. Речь идёт о педагогических и психологических мастер-опытах, направленных на самовоспитание учащихся как самостоятельных личностей, и в то же время подробно поясняется, что учащийся различается по трём аспектам как личность достигшая определенного возраста: и в нём ученики подвергаются во-первых социальному, во-вторых педагогически-психологическому и, в-третьих, биологическому аспектам объясняется.

*Ключевые слова:* человек, интеллект человека, влияние на человека, коллеги, отношение к природе-обществу, возрастные периоды, мыслительная деятельность, интеллектуальная, нравственная, эстетическая, идейно-политическая, духовно-духовная рифи, углубленное освоение выбранной специальности, причинно-следственные связи, материальное и духовное производство, общественная жизнь, образовательный процесс, социальная зрелость, средства информации.

## CONSIDERING THE AGE AND INDIVIDUAL CHARACTERISTICS OF GENERAL SECONDARY SCHOOL STUDENTS IS AN IMPORTANT FACTOR IN INCREASING THE EFFECTIVENESS OF THEIR EDUCATION

Zaripova Gulbahor Kamilovna,

Bukhara State University, Faculty of Information Technology, Associate Professor of the Department of Information Systems and Digital Technologies, Doctor of Pedagogical PhD.

*Abstract: This article is devoted to the author's scientific, theoretical and practical research on taking into account the age and individual characteristics of students in secondary schools - an important factor in increasing the effectiveness of their education. We are talking about pedagogical and psychological master experiments aimed at self-education of students as independent individuals, and at the same time it is explained in detail that a student differs in three aspects as a person who has reached a certain age: and in it, students are exposed, firstly, to social, secondly, pedagogical-psychological and, thirdly, biological aspects are explained.*

*Key words: person, human intelligence, influence on a person, colleagues, attitude to nature-society, age periods, mental activity, intellectual, moral, aesthetic, ideological and political, spiritual and spiritual reasoning, in-depth development of the chosen specialty, cause-and-effect relationships, material and spiritual production, social life, educational process, social maturity, media.*

Inson tabiatning eng murakkab va shu bilan birga eng nozik xilqatidir. O'z navbatida inson muhitga moslashishda o'zini o'zi tartibga soluvchi subyektiv tizimdir. Murakkabligi, sharoitga moslasha olishi va aql zakovatining imkoniyatlarining kengligi jihatdan hozir mavjud bo'lgan elektron va kompyuter qurilmalari insonga barovar bo'la olmaydi. Inson aql zakovatini bu darajada o'sishiga jamiyat taraqqiyoti darajasi hamda ta'lim-tarbiya belgilovchi hisoblanadi. Ammo, inson aql zakovatining cheksiz imkoniyatlarini rivojlanishi ko'p omillar ichida belgilovchi bo'lgan tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Inson tarbiyasi ham o'zidek murakkab va ko'p qirralidir. Eng muhimi inson shaxsi va kamolotining asosi bo'lgan tarbiyadan to'g'ri foydalana olishdir. Bunda eng nozik borliqdagi hamda jonli va jonsiz narsalardan qimmatli insonga tarbiyaning mos keluvchi, nozik usullari orqali to'g'ri ta'sir ko'rsata olish muhimdir.

Kishi biron bir narsaga, yoki odamga ta'sir ko'rsatmoqchi va ma'lum natijaga erishmoqchi bo'lsa, uni bilishi kerak. Masalan, chelangar metaldan biron buyumni yasashdan oldin o'sha buyumga mos metalni tanlaydi. Pichoq yasamoqchi bo'lsa, keskir bo'lishi va zanglamasligi uchun shunga mos po'lat navini tanlaydi. Duradgor bolaga beshik yasamoqchi bo'lsa, o'shanga mos har bir qismi uchun tol, tut daraxtlari yog'ochini tanlab oladi. Modomiki shunday ekan, nechun biz o'quvchi shaxsining xususiyatlarini bilmay unga yondashamiz?!

Bir mutafakkir ta'kidlagan ediki, pedagogik jarayon ham mehnat jarayonidir. Shuning uchun, bunda sen nimaga borayotganingni va o'z materialingdan nima qilmoqchiligingni aniq bilishing lozim.

Agar zargar oltindan qimmatbaho zebu-ziynat buyumini yasayotganida xato qilsa, u oltinni qayta eritib, o'sha buyumni yasashi mumkin. Agar qimmatbaho toshdan buyum yasayotganida xato qilsa, u tosh chiqitga ketadi, Ammo, har qancha qimmatbaho brilliant ham bizning ko'z oldimizda tug'ilgan insondan qimmatliroq emas. Insonni buzish juda katta jinoyat, yoki boshqacha qilib aytganda ulkan gunohdir. Inson meterialidan nima qilmoqchi ekanligini oldindan aniq bilib, so'ng undan nima qilmoqchi ekanligini aniq bilishi lozim.

Uzoq vaqtlar hamkasblar bilan o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash tajribasidan shuni payqadikki, ko'pchilik hollarda tarbiyachilar o'quvchi shaxsi, uning yoshi bilan organizimida va kishilarga, bilim egallashga, tanlagan mutaxassisligiga munosabatining o'zgarishining pedagogik-psixologik qonuniyatlarini uncha bilmaydilar. Shuni hisobga olib, bizlar baholi

qudrat o'quvchilarning yosh xususiyatlari va ular jamoasidagi shaxslararo munosabatlarni qisqacha bayon qilishga jazm qildik. Inson shaxsining shakllanishi va bilish jarayonlari hamda o'ziga, kasbga, boshqalarga, tabiat-jamiyatga munosabatining o'zgarishi inson organizimidagi ichki o'zgarishlar va psixikasining rivojlanishi qonuniyatlariga bog'liq holda sodir bo'ladi. Shuning uchun, insonni tarbiyalash, uni ma'lum kasbga o'rgatishda yosh davrlari bilan bog'liq qonuniyatlardan kelib chiqmoq zarur. Yosh davrlar psixologiyasi ta'limotiga ko'ra inson shaxsini kamol topishi qonuniyatlari turli yosh davrdagi odamlarda vujudga keladigan psixik faoliyat, buning oqibatida yuz beradigan ichki va tashqi ta'sirlarning o'zgarishi bilan xarakterlanadi.

Shaxs kamolotining turli davrlardagi uning yosh jinsiy xususiyatlardagi o'zgarishlarni inobatga olmay, ta'lim tarbiyasi, o'quvchini kasb o'rganishini to'g'ri yo'lga qo'yib bo'lmaydi. O'quvchilar tarbiyasini to'g'ri tashkil qilish, ularni o'zi tanlagan mutaxassisligini chuqur egallash bilan yosh, xususiyatlarini bilish o'zaro sabab va oqibat munosabatlari tarzida bir-biriga bog'liqdir.

Umumiy o'rta ta'lim maktabida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash ta'lim-tarbiyaning ilg'or, faol usullarini qo'llash hamda hozirgi zamon o'qitishini pedagogik va informatsion texnologiyalaridan foydalanish bilan birga o'quvchilarni yosh va o'ziga xos xususiyatlarini bilishga ham bog'liqdir. Bu esa pedagoglar bilan o'quvchilar o'rtasida bir-birini tushunish asosida munosabatlar shakllanishiga asos bo'ladi. O'qituvchi bilan o'quvchining hamkorligidagi faoliyati ta'lim-tarbiya va kasb egallashida muhim masala hisoblansa-da tadqiqotchilar e'tiboridan chetga qolayotganligi ham aniq.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi yuqori sinf o'quvchilari ma'lum kasbni tanlab, uni egallashga kirishgan, jismoniy va jinsiy rivojlanishi asosan sekinlashgan inson, shaxs hisoblanadi. Bu davrdagi o'quvchilar asosan moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishda ijtimoiy hayot va kasb sohibiga xos rollarni va ularga xos talab bilan maxsus rejim, dasturlar asosida bajarishga tayyorlanayotgan alohida ijtimoiy sinf namoyondasidir. Umumiy o'rta ta'lim maktabidagi ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos tomoni o'quvchilarni boshqa ijtimoiy sinflar bilan xoh rasmiy, xoh norasmiy bo'lsin muloqotga kirishishiga undaydi. Bu o'spirin yoshdagi o'quvchilik davrining asosiy xususiyatlaridan biri ijtimoiy etuklikning jadal sur'at bilan ro'yobga chiqishidir.

Ijtimoiy etuklik esa shaxsdan zarur aqliy qobiliyatni va ijtimoiy turmushda bajariladigan turli rollarni egallashga, farzandlarni tarbiyalashga, kasb egallab, jamiyatda ma'lum ijtimoiy mavqega ega bo'lishga o'zini tayyorlashni taqozo qiladi. Shu bilan birga o'quvchi shaxsining xususiyatlarida asosiy mezonlar kasb egallash, bilim olish, jamoat ishlarida ishtirok etish, ta'lim-tarbiyada faollik ko'rsatib o'zini namoyon qilish, yuridik-siyosiy talablarning ustuvorligini ta'minlash hamda ularni bajarishga intilish tuyg'usi va irodaviy zo'r berish, yosh ota, yoki onaning burchini anglash, bo'sh vaqtini tashkil eta olish, sport bilan shug'ullanish, to'garak ishlarida qatnashish kabi jihatlar ustuvor bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabi yuqori sinf o'quvchisi yosh davri o'smir va o'spirinlikni birinchi bosqichi ilk yoshlikdan iborat bo'lib, 15-18, ba'zi hollarda 19 yoshni ham o'z ichiga oladi va o'zining takrorlanmas xususiyatlari va ziddiyatlari bilan xarakterlanadi. Yuqori sinf o'quvchilik davri uning ijtimoiy va kasbiy mavqeini anglashidan boshlanadi. Bunda o'spirinning o'ziga xos ruhiy holatida inqiroz, yoki tanglikni boshidan kechiradi. Katta yoshdagi kishilarning har xil rollarini bajarib ko'rishga intiladi. Turmushning turli quvonch va iztiroblariga ko'nika boshlaydi. Shu asosida katta kishilarning turmush tarzlarini egallash jarayoni uning kamolotida qator ichki qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktab yuqori sinf o'quvchisi biologik, fiziologik, pedagogik, psixologik jihatidan kasbiy ta'lim olishga tayyor bo'ladi. Ular fikrlashida konkret va abstrakt tafakkur, bilimlarni tizimlashtirish kabi sifatlar shakllangan bo'ladi. O'quvchi bu sifatlar



zaminida aqliy, axloqiy, estetik, g'oyaviy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy jihatdan kamoloti ancha chuqurlashadi. Ammo, shunga qaramay tanlagan mutaxassisligini egallash bilan bog'liq yangi vazifalar paydo bo'ladi [1].

Hozirgi paytda axborot vositalarining jadal rivojlanishi, fan-texnika taraqqiyoti, ilmiy ma'lumotlarning miqdorini ko'payishiga hamda bilimlarni egallashni yangi usul va shakllarini kompyuter, internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali, masofaviy ta'lim olishni osonlashtiradi. Elektron vositalar orqali fanni, o'z kasbiga doir yangiliklarni o'rganish imkoniyatini tug'dirmoqda. Ammo, shu bilan birga yuqori sinf o'quvchilarni ma'lum qismi o'zi sevmagan mutaxassislikka o'qishga kirishga majbur etganliklari undagi kasbga nisbatan qiziqishlarning barqaror emasligi va shaxsining yo'nalishi xususiyatidan kelib chiqib, yangiliklarni kasbga doir bilimlarni o'zlashtirishga qiziqishning pastligi, qat'iylik, ijodiy izlanish, irodaviy intilishi o'rnini, loqaydlik, faoliyatsizlik egallashi mumkin. Boshqacha aytganda ular tayyor axborotlar quliga aylanadilar. Chunki kompyuter, displey, EHM, kalkulatorlar inson aqliy mehnatini engillashtirishda, ularni aqliy zo'r berishdan xolos qiladi [6].

Buning ta'siri ostida o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy tadbirlarga befarqlik kuchayishi kuzatilmoqda. Buni oldini olish va yuqori sinf o'quvchilarga kasbiy bilimlarni chuqur o'rgatish hamda ular shaxsiy sifatlarini bilish, yosh xususiyatlarini bilish asosida fan yangiliklari, kasbini chuqur o'rganish ishtiyoqini mustahkamlashni taqozo qiladi. Shu bilan birga o'quvchilarni mustaqil bilim olish, o'z faoliyatini tashkil qila olish, o'z qiziqishi va irodasini muhim ishlarga yo'naltira olish sifatlarini tarbiyalash zaruriyati tug'iladi. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha umumiy o'rta ta'lim maktabda o'qish o'quvchilar uchun silliq, tekis kechmaydi. Buning boisi shuki, bu davrda ham yuqori sinf o'quvchi shaxsida turli ruhiy holatlar – shaxsini shakllanishi bilan bog'liq fazilatlarining takomillashishi davom etadi. O'quvchilik yoshining ijtimoiy psixologik rivojlanishida belgilovchi xususiyatlaridan biri kasbini o'rganishiga bo'lgan ongli motivning kuchayishidir. Bu yoshda o'quvchilarda axloqiy jarayonlar ancha sust o'ssada, Ammo, shaxsiy xulq atvoridagi fahm-farosat, mustaqillik, topqirlik, tashabbuskorlik, mulozimmat va munosabatidagi o'zgarishlar keskinroq namoyon bo'ladi. Ularda ijtimoiy voqealar, siyosatga qiziqish, axloqiy normalarga rioya qilish, ularni anglash-fikrlashga, oilaviy masalalar, er-xotin munosabatilarga qiziqish ancha oshadi.

Ilmiy tadqiqotlarning ko'rsatishicha, yuqori sinf o'quvchi hayot tajribasini egallashida o'zligini anglash kuchayadi. Bu eng avvalo, shaxsiy hayotining mazmunini anglash, hozir va kelajak uchun turmush rejalarini belgilash, kelajakdagi hayot maqsadini aniqlash hissiyotlari o'quvchi fikri-zikrida muhim o'rin egallaydi. Shu asosda o'quvchi o'rta maktabdagi har kunlik siquv, nazorat, so'rashlardan umumiy o'rta ta'lim maktabda nisbatan mustaqil sharoitiga ko'nika boradi. Umumiy o'rta ta'lim maktabdagi tartib-intizom, o'quv mashg'ulotlari, sinov imtihonlarning talablariga o'zini moslashtiradi. Yangi-yangi mikromuhit ichidagi (barcha o'quv sinflari, maktab)idan uning ichidagi kichik mikromuhit hisoblangan sinf muhitiga ko'nika boshlaydi. Yuqori sinf o'quvchisi bir muncha yangilangan mikromuhitda o'z o'rnini topish, haq-huquqlarini va majburiyatlarini tushina boradi. O'quvchi uchun shaxslararo munosabatlarining yangicha maydoni paydo bo'ladi. Buning oqibatida u hayotdagi o'zining ijtimoiy o'rni-rollarini shaxsan o'z ko'rigidan o'tkazadi.

Ammo, shu bilan birga o'spirinlikning avvalgi yillarida shakllangan romantik his tuyg'ular o'quvchi hayotida yuz berayotgan yangi voqealarning mohiyatini chuqur anglashga halaqit beradi. O'quvchi hali hayotda sodir bo'layotgan yutuqlar va muvafaqqiyatsizlikning ijtimoiy-psixologik mohiyati haqida aniq tasavvurga ega emas. Shuning uchun, o'quvchilikning dastlabki yillarida sodir bo'layotgan ayrim shaxsiy va ijtimoiy hayot o'zgarishlarini tahlil qilish va ulardan uzoqqa boruvchi xulosalar chiqara olmaydi. Bular oqibatida o'quvchi o'z xulqi va bilish faoliyatini to'la ongli maqsadga muvofiq boshqara olmaydi. Shunga ko'ra hattiharakati, xulqi harakatlarida asoslanmagan motivlar, ehtiyoqsizliklar ro'y beradi.

O'quvchining yosh davrining xususiyatlarini o'rgangan V.T.Lisovskiy ta'kidlashicha, 19-20 yoshlarda ham hali salbiy hatti-harakatlar uchrab turadi. Bu yoshda xohish va intilish (ehtiyoj bilan imkoniyat)ning o'sishi iroda va xarakterning rivojidan ancha ilgari ketadi. Bu nomunosiblikni bartaraf qilishda o'quvchining hayot tajribasi muhim rol o'ynaydi. Shu tajribaning etishmasligi, nazariy tasavvurlar bilan real hayot voqeligi, hayoliy reallik bilan romantika, haqiqat bilan illuziyani, orzu bilan xohishni, optimizm (kelajak) bilan qat'iylikni farqlay olmaydi [4].

Ilk o'spirinlikda boshlangan o'z-o'zini tarbiyalash, o'quvchilik yillarida chuqurlashib uning shaxs va kasb sohibi sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga o'z faoliyatini o'zi boshqarishi ham ancha kuchayadi. Unda o'z-o'zini boshqarishning komponentlari: o'z-o'zini tahlil, nazorat, o'ziga baho berish, o'z faoliyatini korreksiya qilish, qisqasi o'zini anglash ham belgilovchi ahamiyat kasb etadi. O'quvchida ilk o'spirinlik yoshida shakllangan idealida ham o'zgarishlar yuz beradi. Idealidagi yuksak, barqaror, barkamol «men»ni real yangi sharoitdagi (aniq, voqea) «Men» bilan taqqoslash orqali o'z-o'zini boshqarishning tarkibiy qismlari amaliy ahamiyat kasb etadi. Unda avvalgi ideal «men» yangi sharoitga mos emasligi, uni umumiy o'rta ta'lim maktabdagi hayot tajribasi bilan to'ldirish lozimligi istagi paydo bo'ladi. Avvalgi idealning yangi sharoitga mos kelmasligi undagi g'ayritabiiylik, tasodifiylik sodir bo'layotganini sezadi. Real «men» esa uni to'lik qondira olmaydi. O'quvchi shaxsining takomillashuvida bunday obyektiv qarama-qarshiliklar o'z shaxsiyatiga nisbatan ichki ishonchsizlikni, o'qishga nisbatan salbiy munosabatni vujudga keltiradi. Bunda o'quv yurtiga kirgan o'quv yili boshlanishidagi ko'tarinki kayfiyat bilan ta'limni tashkil qilish shakli, mazmuni, kun tartibi, o'rta maktabdan keskin farq qiluvchi omillar – bilimni tekshirish va baholash, uning yangi sharoitga to'la tayyor emasligi, uning ruhiyatida ma'lum tushkunlik ro'y berishiga olib keladi. O'quvchining kayfiyati, ichki va tashqi omillarning bir-biriga mos kelmasligi unda umidsizlik, ruhiy parokandalik, kelajakka ishonchsizlik, ikkilanish, hadiksirash kabi salbiy his tuyg'ularni paydo bo'lishiga asos bo'ladi.

Hozirda taniqli olim bilan o'quv yurtida o'quvchilarni tarbiyaviy jarayoniga doir mavzuda o'z fikrlari bilan o'rtoqlashishni so'raganimizda, u kishi o'zlari aynan yuqoridagi holatni o'z boshlaridan kechirganliklarini hikoya qilib berdilar. O'rta maktabni a'lo baholarda bitirib, umumiy o'rta ta'lim maktabga birovlarning maslahati bilan kirish, osonroq kasbga hujjat topshirib, kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tib, o'quv yurtiga kirdim. Ammo, o'qish sharoitining keskin o'rta maktabdan farq qilishi, ayrim o'qituvchilarning pedagogik muomalasining qo'polli oqibatida menda o'qishga kirganimga afsuslanish kayfiyati paydo bo'ldi. Buning qator sabablari bor edi. Eng avvalo oilaviy iqtisodiy sharoit, yotoqxonada joy ozligi uchun ijarada turish, o'quvchilarning mutlaqo o'z holiga tashlab qo'yilganligi, ular bilimni baholashda maktabdan keskin farq, bilimni baholashdagi noxolis munosabat menda o'qishni tashlayman, degan fikrga olib keldi. Bunday kayfiyatni paydo bo'lishiga bir fan o'qituvchisining menga noto'g'ri baho qo'yganligi ham sabab bo'lgan edi. Ammo, maktab o'qituvchilarim, o'qishga kirolmagan o'rtoqlarim menga o'qishni tashlamaslikni, qiyinchiliklar o'tib ketishini, ularni engib o'tish kerak, degan maslahatlari tufayli o'qishni davom ettirishimga turtki bo'ldi», - deb xotirlaydi etuk ustoz [3].

Shuning uchun, umumiy o'rta ta'lim maktab ta'limining dastlabki paytlarida bo'lim, kafedra va sinf rahbarlari o'quvchilarga bu erdagi ta'lim jarayonini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari, sinov va imtihonlarining o'tkazilish tartibi, shunga muvofiq kun tartibi, o'quvchining yangi sharoitga ko'nikishiga ko'maklashishlari lozim. Umumiy o'rta ta'lim maktabga kirgan o'quvchilarning yuqoridagi vaziyatga tushmasligining oldini olishda, ular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar ham muhim rol o'ynaydi. O'quvchilikning dastlabki davrlarida kishilarning hulk-atvor normalariga munosabatlarida tajribasizlik, voqelikka baho berishda o'z imkoniyatini to'g'ri baholay olmaslik, noto'g'ri talab qo'yish, qat'iyatlilikning etishmasligi kabi qator xususiyatlari bilan ham ajralib turadi. Buning oqibatida o'rtoqlari va

o'qituvchilar bilan muloqotga kirisha olmaslik, pedagoglarning uning talablarini inkor qilish ham nizolar keltirib chiqaradi.

Yirik psixolog olim B.G.Ananyev rahbarligida o'tkazilgan ilmiy tatqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar psixofiziologik rivojlanishidagi xususiyatlari ta'lim-tarbiyani to'g'ri tashkil qilganda, ularning aqliy imkoniyatlarini to'la ishga solish va samarali o'quv faoliyatini tashkil qilish uchun etarli imkoniyat va shart-sharoit yaratadi [2].

O'quv yurtida o'qishni 9-va 11-sinflarda mutaxassislikni to'g'ri tanlagani, yoki tanlamaganligi haqida jiddiy o'ylaydilar. Chunki bu yoshda o'quvchida o'zini boshqarishning ijodiy tafakkur, muayyan hayotiy tajriba, egallagan bilimlarni tizimlashtirish, his-tuyg'ular, qarashlar, axloqiy qadriyatlarga ma'lum barqaror munosabat shakllanadi.

O'quvchida o'zligini anglash hamda nisbatan barqaror e'tiqod shakllanadi. Shular asosida o'quvchi o'z qat'iy fikriga, xatti-harakatida qat'iyat, ijtimoiy hayot turli tomonlari bo'yicha ma'lum ko'nikma va malakalarga ega bo'la boradi. Buning oqibatida o'zining olgan bilimlarini amaliy sinash, o'z hayot tasavvurlarini real voqelik bilan solishtira olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

B.G.Ananyevning tadqiqotlarining tasdiqlashicha, o'quvchi 16-17 yosh davrida psixofiziologik imkoniyatlari yuksak rivojlanadi. Uning organizimining tashqi ta'sirga javobi, qon bosimi optimal darajada bo'lib, qon kislorod bilan etarli to'yinadi. Buning oqibatida unda o'qish uchun qulay imkoniyat paydo bo'ladi. O'quvchida ilmiy axborotlarni bilish, eslab qolish va xotirada saqlash qobiliyatlari kuchayadi. O'quvchilikning keyingi davrlarida ham undagi bu sifatlar pasaymaydi. [2]

Kuzatishlar ko'rsatadiki, o'quvchilar o'quv faoliyatining samarali bo'lishi o'quv yurtidagi ta'lim-tarbiya jarayonining o'ziga xos jihatlarini tushunib, salbiy ta'sir qiluvchi omillarning oldini olish, sinfda hamkorlik, hamdardlik, bir-birini tushunish yuz berishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarning oldini oladi. Quyi va o'rta sinflarda umumiy o'rta ta'lim maktabi mikromuhitiga to'la moslashmagan, buning oqibatida o'qish faoliyatlarini etarli tashkil qila olmagan bo'lsalar, asta-sekin sinfdan sinfga o'tish bilan ularda ma'lum malakalar hosil bo'ladi. Ular o'z faoliyatlarini tashkil etish, bilimlarni o'zlashtirishga moslashib boradilar. Ammo, shu bilan birga o'quvchilarda fanlarni o'zlashtirish, bilimlarini mustahkamlashning uslubiy asoslari (texnologiyasi)ni hali aniq tasavvur qila olmaydilar. So'rovlar natijasida shu narsa aniqlanganki, o'z faoliyatlarini tashkil qilish, bilimlarni o'zlashtirish, deganda ular ko'p takrorlashni tushunishlarini e'tirof etadilar.

So'rov savollariga o'quvchi «materiallarni o'zlashtirish uchun ularni o'qiyman, takrorlayman, lekin, hech qachon uni o'zlashtirishning oqilona yo'l, usul, yoki vositalarini izlab o'tirmayman», - deb javob berdi. Bundan ko'rinadiki, o'quvchilar o'quv faoliyatining ayrim tomonlarini yuzaki biladilar. O'quv faoliyatining tashkil qilinishning umumlashgan tomonlari anglash, bilish faoliyatining harakatlari haqida aniq tasavvurga ega emaslar.

O'quvchilar ko'pchilik hollarda referat, seminar yozish, ma'ruzaga doir asosiy manbalarni konspektlashtirish, imtihon va sinovlarga tayyorlanish malakalarini egallab oladilar. Ularni bilish faoliyatini tashkil qilishni maqsadga muvofiq bo'lishi uchun aqliy mehnatni tashkil qilish texnologiyasi bilan tanishtirish lozim.

Inson har qanday faoliyat bilan shug'ullanganida uning ruhiy holati asosiy rol o'ynaydi. Ichki, yoki tashqi sharoitga qarab bajaradigan vazifalarida psixik holat inson xulq-atvori, yoki faoliyatida baholovchi, yo'naltiruvchi, nazorat qilish, qiziqtirish, yoki mazmunini belgilovchilik funksiyalarini bajaradi. Inson psixikasi uning xulq-atvori va faoliyatidan ajralmasdir. O'z navbatida psixika xulq-atvor va faoliyatga ta'sir ko'rsatadi. Shaxsdagi psixik jarayonlarni bilish, emotsional va irodaviy turlarga ajratish mumkin. Insonning psixik holati deganda – uning vaqtli holatini (ko'tarinki, ishonchli, tayyor, ko'nikkan, shubhali, ezilgan va h.k.) bo'lib, ularning holatidan bilish, amaliy faoliyatdagi muvaffaqiyat hamda insonga tashqi



ta'sir natijalarini boshqarish ko'p jihatdan tarbiyaga bog'liq bo'ladi. Shaxsning tarkib topishi va o'zini namoyon qilishi uning ongi va o'zini anglash asosida borliqqa ma'lum munosabatida o'z ifodasini topib, xulq-atvor va faoliyatining subyektivi tarzida ijtimoiy taqozo qilingan sifat va xususiyat, o'z hayotiy pozitsiyasi, baholay olish, qiziqishlari bilan ajralib turadi. O'quvchining yoshi va u bilan bog'liq, psixofiziologik xususiyatlarini aniqlash – ta'lim-tarbiyani xususiy maqsadlarini aniqlash imkonini berib, unda ta'lim jarayonida zarur bilim, ko'nikma va malakalarni hamda kasbi uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirish imkoniyatini beradi. Bo'lajak mutaxassislar faoliyatini tahlil qilish ta'lim-tarbiya vazifalarini to'g'ri belgilashga asos bo'ladi. Shu bilan birga o'quv jarayonini har qanday mutaxassisga xos bo'lgan kasbiy va shaxsiy sifatlarni shakllantirishga qaratish imkoniyatini beradi.

O'quvchi ma'lum yoshga etgan inson va shaxs sifatida uch jihati bilan ajralib turadi:

1. Ijtimoiy jihatdan o'quvchi ijtimoiy munosabatlarni, ma'lum insoniy sifatlarni mujassamlashtirgan, ma'lum sinf (ziyoli) millat, jamoa-sinfga, mansub. Uning jamiyatdagi mavqei o'quvchilar ijtimoiy sinfiga kirib, ta'lim oluvchi vazifasini bajarishi bilan belgilanadi.

2. Pedagogik-psixologik jihatdan o'quvchi psixik jarayonlar, holatlar va shaxsiy sifatlarning birligining namoyon bo'lishidir. Uning bu jihati psixik jarayonlar (yo'nalganlik, mijoz, xarakter, iroda, qobiliyat) bilan belgilanib, ularning holati oqibatida psixik jarayonlarning paydo bo'lishi, davom etishi, namoyon bo'lishida ko'rinadi. Ammo, bu jarayonlar har bir o'quvchida o'ziga xos individul namoyon bo'lishini unutmashlik lozim.

3. Biologik jihatdan o'quvchi oliy nerv faoliyatining tipi, analizatorlar, reflekslar, instink, jismoniy kuch, gavda va yuz-ko'z tuzilishi, ko'z va teri rangi bilan xarakterlanadi. Bu xususiyatlar asosan irsiyat bilan belgilanib, lekin, ma'lum yashash sharoiti ta'sirida o'zgarishlarga duchor bo'ladi.

O'quvchilarni bunday tomondan o'rganish, ularning shaxsiy sifatlarini va imkoniyatlarini aniqlashga asos beradiki, ta'lim-tarbiyani bularsiz to'g'ri tashkil qilish mumkin emas. O'quvchiga ma'lum yoshdagi inson sifatida yondashadigan bo'lsak, unda hamma psixofiziologik sifatlari shakllangan, aqliy mehnat uchun imkoniyati etarli bo'ladi. Boshqa yoshdagi kishilarga qaraganda o'quvchilik yillarida xotira va diqqat kuchayib, yuksak rivojlanishga ko'tariladi. Verbal mantiqiy masalalarni echishga ko'proq tayyor bo'ladi. Agar uni shaxs sifatida o'rgansak, 15-16 yosh bu axloqiy, estetik hissiyotlarning faol rivojlanish davri, xarakterning shakllanib, ma'lum maromga kelishi bilan xarakterlidirki, bu katta yoshdagi kishilarga taalluqli har qanday fuqarolik, ijtimoiy-siyosiy, mehnat rollarni egallashga tayyor bo'ladi. Aynan shu davr bilan shaxsning mustaqil ishlab chiqarish faoliyati va mehnatni hamda o'z tarjimai holini boshlashi, keyinchalik esa mustaqil kasb-hunar egallab, maktabni tugatgandan keyin o'z oilasini qurishi bilan xarakterlanadi. Yuqori sinf o'quvchilarda qadriyatlarga nisbatan butun motivatsiya tizimining keskin o'zgarishi, boshqa jihatdan kasbiy o'zgarishlarning jadal rivojlanib, mutaxassislikka moslashishi bo'lsa, boshqa tomondan bu yosh xarakter va intellektning shakllanishida asosiy hal qiluvchi davr hisoblanadi. Bu payt sportda rekordlar, badiiy, texnika va ilmiy ijodda muvaffaqiyatlar bilan alohida ajralib turadi.

O'spirinlik davrida organizimning jismoniy kamolotining rivojlanishi qisman sekinlashib, g'oyaviy va ma'naviy etuklikning rivojlanganlik darajasi – mustaqil ravishda kasb tanlash va ishlab chiqarishda ishtirok etish uchun etarli bo'ladi. Bu yoshda yuqori sinf o'quvchilarida milliy qadriyatlarga nisbatan alohida munosabat shakllanadi. Bu uning o'z shaxsiy sifatlariga, bilim olishi, tengqurlari va kattalarga munosabatida ham birday namoyon bo'ladi. O'quvchini o'z xatti-harakatiga boshqalarning bahosi ko'proq qiziqtirgani uchun o'z xulq-atvorini ongli belgilangan va qabul qilingan normalar asosida qurishga harakat qiladi. O'quvchining shaxs sifatida ma'lum etuklikka aqliy, axloqiy va ijtimoiy siyosiy etilishi qiziqishlarining mazmunan chuqurlashuviga olib keladi. Shu asosda faktlarga qiziqish ham mazmunan yo'nalish olib, yalpisiga hamma fanlarga emas, ma'lum fanga qiziqish barqarorlashadi. Atrofdagilarning tanqid, tanbehlariga o'z-o'zini tanqid bilan javob beradi. Ammo, o'rinsiz tanqid, dashnomlar,

tengqurlari va rahbarlar, o'qituvchilarning noto'g'ri muomalasi o'ziga va boshqalarga nisbatan norozilikka sabab bo'ladi [3].

Umumiy o'rta ta'lim maktabida ta'lim-tarbiya jarayonining murakkablashib borishi, o'quvchi shaxsiga ham ta'sir ko'rsatadi. Har qanday shaxs kabi o'quvchi shaxsi ham o'zgaruvchan va rivojlanuvchidir. Hali yuqori sinf o'quvchisi maktab o'rta sinf o'quvchisidan uncha ham farq qilmasada, uning mavqeining maktab o'quvchisidan mustaqil hayot tomon o'zgarishi, unga qadam qo'yishi qator yangi sifat o'zgarishlari bilan xarakterlanadi. O'quvchida o'zligini anglash hissiyotining yuksalishi bilan namoyon bo'ladi, bunda endi «men yuqori sinf o'quvchisiman, boshlang'ich sinf o'quvchi emasman», degan so'zlarni eshitish mumkin. Bunga o'quv maktabdagi ma'lum ma'noda (ota-ona, o'qituvchilar tarkibi) mustaqillik, ijtimoiy topshiriqlar va jamoat tashkilotlarining ta'siri, yangi fan tarmoqlarini egallash, boshqa jinsdagilarning boshqacha qarashlari ham sabab bo'ladi.

O'quvchilar bilan ishlash va ular faoliyatini o'rganish natijalari ko'rsatadiki, 8-9 sinf o'quvchilari turli jamoat ishlariga ko'proq xohish bilan ishtirok etadilar, ular o'qituvchilar, rahbarlar va jamoat tashkilotlari ta'siriga ko'proq beriluvchan bo'ladilar. Ularga topshiriq berib, natijasini talab qilish ancha oson. Chunki ularda o'rta maktab oldingi sinflarida shakllangan odat, o'z shaxsiy manfaatlaridan kelib, topshiriqni halol bajarish tashabbusi so'nmagan bo'ladi.

Ammo, 10 - 11 sinfdan boshlab ular mustaqil hayot sharoitiga moslashadilar. Ularga «8-9 sinflarga qaraganda o'zingizga qanday o'zgarishni his qilyapsiz?», deb berilgan savolga 10 - 11 sinf o'quvchilari «o'zimni ishonchli his qilib, budjet va vaqtni taqsimlashga ancha tajriba orttirdim», - deb javob berdilar. Shu bilan birga o'quvchilar ancha mustaqil, avvalgi xatolarni takrorlamaslik, ma'naviy boy va ma'suliyatli bo'lganlarini, mutaxassislikni egallash haqida o'ylab, maxsus fanlarga qiziqishlarining oshganligini qayd qiladilar.

11 yuqori sinf o'quvchilari kasbiy tayyorgarligining kuchayishi, ilmiy ishga qiziqishning mustahkamlanishi, kasbiy qiziqishlarning rivojlanishi va chuqurlashuvi bilan o'quvchi hayotida alohida ahamiyat kasb etadi. Mutaxassislikka qiziqishining keskin oshishi ayrim hollarda turli sohalarga qiziqishning qisqarishida ko'rinadi. U davrda o'quvchining o'quv yurtidagi faoliyatining asosiy xususiyati mutaxassislikni egallash bilan belgilanadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabdagi ta'limining tugallash bosqichida o'quvchi o'z kasbi mutaxassisligi bilan yaqindan amaliyot orqali tanishadi. Uning xulq-atvorida kasbiy tayyorgarlikni egallashning samarador shakl va vositalarini izlash, uning hayotiy va madaniy qadriyatlarga yangicha yondashish sifatleri paydo bo'ladi. O'qishni tugatib bo'lajak faoliyatga amaliy (ruhiy) tayyorlanish haqida hozirlanish hosil bo'ladi. O'quvchi hayotida moddiy va oilaviy qadriyatlarga munosabat, bo'lajak ish joyi, yoki oliy o'quv yurtlariga kirish masalalari belgilovchi bo'lib qoladi. Bu davrning o'ziga xos yana bir jihati o'quvchining jamoaviy hayoti tarzidan asta-sekin yakka (individual) yashash tarziga o'tishini ham nazardan soqit qilmaslik kerak [7].

Bundan tashqari mutaxassislik harakteriga qarab texnik, tabiiy, yoki gumanitar, hamda kasbning xususiyatiga bog'liq o'quvchi shaxsiy sifatlarida kasbiy yo'nalishga xos o'zgarishlar vujudga keladiki, ularni maxsus tadqiq qilish kerak. Biz baholi qudrat unga umumiy tomonlar – mavzu talabi doirasida, tarbiyaviy jarayonini tashkil qilish jihatidan sayohat uyushtirdik, xolos. O'quvchilarni o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda ularni yoshi bilan bog'liq qiziqishlarining ko'lami ham o'zgarishini hisobga olish ta'lim-tarbiyasini tashkil qilishga ma'lum ahamiyatga ega. 16-17 yoshdagi kishilarning talab va ehtiyojlarini o'rganish ko'rsatadiki, qiziqish, ehtiyojlarining darajasining oshib borishi bilan yutuq va muvafaqiyatsizlik bilan shu yosh sinfiga kiruvchilar soni kamayib boradi. Yosh omili talab va ehtiyojlar darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatmaydi, Ammo, yosh o'tishi bilan yutuq va muvafaqiyatsizlikka munosabat mutanosibliyi pasayadi. Bu esa o'quvchining o'ziga ishonchi, baho berishining va xulq-atvorining ancha doimiylashganligining nishonasidir. Shuning bilan birga tadqiqotchilar o'quvchilarga yutuq

va muvafaqiyatsizlikka nisbatan umumiy baho berishda umumiy muvafaqiyatsizlikka baho berish ancha oshirib yuborish xosligini ta'kidlaydilar [5].

Shunday qilib, shu asosda agar biz umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilarini sinfdan-sinfga o'tishi bilan ehtiyoj va qiziqishlarining o'zgarishi dinamikasiga nazar solsak, qo'yidagi manzaraning guvohi bo'lamiz.

9 sinf – o'rta maktab o'quvchisini umumiy o'rta ta'lim maktab yuqori sinf o'quvchisining jamoaviy hayotiga moslashtirish masalasini hal qilishi lozim. O'quvchilar xulq-atvorida qat'iyatning etishmasligi, ayrim hollarda kelishuvchanlik darajasining yuqoriligi, o'z rolga tabaqalashgan yondashuvning yo'qligi bilan xarakterlanadi.

10 sinf – o'quvchining jiddiy va tekis faoliyati davri hisoblanadi. 10 sinf o'quvchisi hayotida ta'lim-tarbiyaning hamma shakllarining belgilovchiligi bilan ajralib turadi. O'quvchilar umumiy tayyorgarlik olish bilan birga, o'zlarida keng ma'naviy-madaniyat ehtiyojlarini shakllantiradilar. Umumiy o'rta ta'lim maktabisharoitiga moslashish jarayonini tugallaydi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabni 11 sinf, ya'ni maktab bitiruvchisi bo'lajak mutaxassis sifatida imkoniyati oshadi:

- o'quvchining g'oyaviy e'tiqodi, kasbga yo'nalganligi, mustahkamlanishi, zaruriy qobiliyatlari rivojlanadi;

- shaxsiy (psixofiziologik) xususiyatlari mutaxassislashadi, holati va tajribasi takomillashadi;

- mustaqillikka, Vatan, xalq oldidagi burchini anglash hissiyoti kuchayadi, kasbiy mutaxassislik, o'ziga xosligi (individuallik), hayotiy pozitsiyasi mustahkamlanadi;

- o'quvchining bo'lajak kasbga nisbatan qiziqishi oshadi;

- ijtimoiy va kasbiy tajribani muntazam o'zlashtirish oqibatida, kasbiy sifatlar shakllanib, ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy etuklik rivojlanib, o'quvchi shaxsini umumiy qat'iyiligi oshadi;

- kasbiy mutaxassisligi va bo'lajak ishiga amaliy tayyorgarligi mustahkamlanadi.

Ammo, bu sifat va kasbiy xususiyatlar silliq, to'g'ri yo'ldan bormay, o'quvchining shaxsida ichki dunyosining ziddiyatlari, o'ziga xos individuallikni aniqlashning butun murakkabligi, ma'naviy va madaniy madaniyatini shakllantirishining quvonchi, tashvishlari, iztiroblari bilan amalga oshadi. O'qituvchilar, umumiy o'rta ta'lim maktabiva bo'lim rahbarlari, tarbiyachilar ular bilan ish olib borar ekanlar, ularni yoshi va shaxsi bilan bog'liq xususiyatlarini bilib muomala qilsalar, har ikkala tomon faoliyati ham samarali bo'lishini tajriba ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Zaripov K.Z., Murodova M. Sinf rahbarlari ishining mazmuni va ular metod birlashmasi faoliyati. – Toshkent: – 1991-yil.

2. Ананьев Б.Г. К психофизиологии студентского возраст В. к: современное психолога – Педагогические проблемы высшей школе. – Ленинград: – 1974.

3. Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: - Пед. фан. док. ёзилган дисс. – Тошкент: – 1993. – 364 б.

4. В. Т. Лисовский, В. Г. Иванов, Д. А. Гранин и др. Жить достойно: Пробл. нравств. воспитания молодежи / Личность. Мораль. Воспитание. Сер. худож.-публицист. и науч.-попул. изд. - М. : Политиздат, 1984. 223 с.

5. G. K. Zaripova. Future specialists—spiritual and professional education of secondary school students—a need for the development of our independent country. (2023). Future specialists – spiritual and professional education of secondary school students – a need for the development of our independent country. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 97–105. <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3872>.

6. G. K. Zaripova, F.F.Norova, T. Subxonqulov. Building the professional competence of globally competitive teachers in digital and information and communication technologies. Journal of Survey in Fisheries Sciences. 10(3S) 2254-2264. 2023. 2254-2264- pages. <https://sifisheriessciences.com/journal/index.php/journal/article/view/844/837>.

7. Г. К. Зарипова. Педагогическая подготовка и формирование личности учащегося и общей средней школы и его значение лидера и получения профессии. Образовательные исследования в области универсальных наук, 2 (10), 8–22. (2023). <http://erus.uz/index.php/er/article/view/3794>.